



**O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MASALALARI”
ILMIY-NAZARIY ANJUMANI
MATERIALLARI**

2022-YIL 16-MART



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI

Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari

Toshkent – 2022

Jon **quti** ko'ngul quvvatidur, sofigu durdung. [Xazoyin ul-maoniy]
Yiroqdin ko'rub o'g'li tobutini,
Uzub charx aning umrining **qutini**. [Saddi Iskandariy] [NATIL.,83b]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Xazoyinul-maoniy. – Toshkent, .I, 1963.
2. Boltaboev H., Dadaboev H.. Devoni lug'otit turk, I,II,III jildlar. – Toshkent, 2006-2008.
3. M.Koshg'ariy. Devoni lug'otit turk. I. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. – Toshkent, 1963.
4. Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan nashriyoti.,1983.
- 5.O'zbek tilining izohli lug'ati.–Toshkent: "O'zbekision milliy ensiklopediyasi", 2008.
- 6.Hakimova M.K. O'zbek tilida abstrakt nomlar semantikasi. – Toshkent, 2009 Elektron ta'lim resurslari:
<http://www.kitab.uz/cms/q=node/223 o1.04.08>.
www.ziyonet.uz
www.edu.uz
www.arxiv.uz

OMONIMIYAGA DOIR TADQIQOTLAR

Lafasova M.,
ToshDO'TAU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada omonimlarning o'rganilishi, tilshunoslarning omonimiya haqidagi qarashlari, omonimlarga berilgan ta'riflar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *omonimiya, omonimlar, polisemantik so'zlar, tuyuq, shakldoshlik hodisasi.*

Omonimiya hodisasi dunyoning deyarli barcha tillarida keng tarqalganligi bois, bu hodisani ta'riflash va unga u yoki bu tilda baho berishga bag'ishlangan adabiyotlar ko'p.

G.Ismailov omonimlarga bag'ishlangan maqolasida: "Ma'lumki, omonimiya tuzilishi bir xillikka asoslangan, ammo ma'no jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lmagan leksik hodisa hisoblanadi. Turli xil tillarda, qolaversa, o'zbek tilida ham omonimiya leksemalar o'rtasida o'zaro ta'sirning paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi"— deb yozadi.

Omonimlar haqida E.V.Sevortyan fe'l-ot tipli o'zaklar deb fikr bildirsa¹, qirg'iz olimasi B.O.Oruzbayeva bir o'zakli omonimlarni turkiy tillardagi qadimiy so'z yasash usullaridan biri deya ta'kidlaydi², boshqa bir qator olimlar esa ominimlarni bir so'z turkumiga xos so'zning boshqa turkumga o'tishi natijasi, ya'ni konversiya deb ataydilar³.

¹ Sevortyan E.V. Affiksi glagoloobrozovaniya azerbaydjonskom yazike. –Moskva:1962. B–365

² Oruzbayeva B.O. Slovoobrazovaniye v kirgizskom yazike. –Frunze:1955. S-262

³ Smirnitkiy A.I. Leksikologiya angliyskogo yazika. –Moskva:1956. S–160-161 ., Reformatskiy A.A. Vvedeniye yazikoznaniye. –Moskva:1967. S–88

Omonimiya va u bilan bog‘liq til hodisalarining tarixiga nazar tashlash, mavjud nazariy xulosalarga baho berish, o‘z munosabatlarimizni bildirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uni o‘rganish hamda jamoatchilikka tatbiq etish til boyligini oshirishga olib keladi. Shuning uchun ham bugungi kunda omonimiyani o‘rganish muhim hisoblanadi.

Omonimiya masalasi haqida prof. B.M.Yunusaliyev quyidagicha fikr bildiradi: Omonimlar so‘zning lug‘aviy-grammatik rivoji mahsuli, ya’ni bitta so‘zga bir necha ma’noni yuklash natijasi.

Turkiy til omonimlarining dastlabki tadqiqotchisi Mahmud Koshg‘ariy hisoblanadi. Koshg‘ariy omonimlarga oid materiallarni to‘plabgina qolmasdan, ularni ilmiy jihatdan sharhlab ham o‘tgan. Jumladan, “Devonu lug‘otit turk” asarida o‘t so‘zining o‘simlik, quruq xashak, davo va zahar singari to‘rt xil ma’noda ishlatilishini ko‘rsatib o‘tgan. Keyinchalik bu so‘z olov, o‘tmoq so‘zining o‘zagi kabi ma’nolar bilan boyigan. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, *olov* ma’nosidagi o‘t so‘zi tamomila boshqa o‘zakdandir. Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zni *o‘rt* shaklida ko‘rsatadi. Buni Alisher Navoiy asarlari ham tasdiqlaydi:

Quyoshdek olam aro bazm chog‘i,

Jahonga o‘rt solib razm chog‘i.

Bizningcha, bu fikrda yetarlicha asos bor. Chunki hozirgi kunda faol iste’molda bo‘lgan “o‘rtanmoq” so‘zi ham kuymoq, yonmoq ma’nosini ifodalaydi:

Navoiy o‘z asarlarida omonimlarning semantik va poetik xususiyatlarini ochar ekan, ularni o‘z ona tilining boyliklari deb hisoblaydi va turkiy(o‘zbek) tili omonimlarga nihoyatda boy ekanini va ular asosida go‘zal tuyuqlar yaratish mumkinligini ta’kidlaydi:

“Ot lafziki, bir ma’nisi alamdur, yana bir ma’nisi markabdur va yana bir ma’nisi amrdurki, toshni yo o‘qni ot deb buyurg‘aylar. Bu tajnisda mundoq deyilibdurkim,

Chun pariyu hurdur oting, begim,

Sur‘at ichra dev erur oting, begim.

Har hadangikim, ulus andin qochar,

Notavon jonim sari oting, begim.

Va bu ikki baytki, tajnisi tomdur, ham turk shuarosi xossasidurki, soartda yo‘qtur va muni tuyug‘ derlar...”¹.

Tilshunos Faxri Kamol omonimlarni quyidagicha ta’riflaydi: “Shakli bir, ma’nosi boshqa-boshqa bo‘lgan so‘zlar omonimlar gruppasiga kiradi. Omonimlar, asosan, bir xil ohangda aytiladi va bir xil shaklda yoziladi”. U o‘zining “O‘zbek tili leksikasi” nomli ishida omonimlarga kengroq to‘xtalgan. Masalan, omonimlarni shakllantiruvchi omillardan quyidagilarni alohida ta’kidlaydi:

1. Ba’zi bir so‘zning ma’no xususiyatlari orasidagi o‘zaro munosabatning borgan sari uzoqlashishi natijasida. Masalan, *kun*, *oy* so‘zlari.

2.Ma’lum so‘z, o‘zak– negizdan yangi so‘zlar yasalishi natijasida. Masalan, *oylik* – “maosh”, *oylik* – “reja”.

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 16-tom. –Toshkent: Fan,2000. –B.17

3. Bir tilga ikkinchi bir tildan soʻz va termin qabul qilinishi natijasida. Masalan, *tom* – “uyning tepasi”, *tom* – “kitobning jildi”.

4. Soʻzlarning baʼzi tovushlari oʻzgarib, boshqa shaklga koʻchishi natijasida omonimlar paydo boʻladi¹.

Prof. M. Mirtojiyevning omonimiya haqidagi ayrim qarashlari “Oʻzbek tili leksikologiyasi” kitobida oʻz aksini topgan. Ushbu kitobda oʻzbek tilidagi soʻzlar shakl va maʼno munosabatiga koʻra ikki guruhga ajratilgan: birinchisida muallif shakliy oʻxshashlik va shakliy bir xillik, yaʼni paronimiya hodisasini, ikkinchisida esa omonimlar, omograflar, omofonlarni koʻzda tutadi².

Xulosa qilib aytganda, omonimiya masalasi uzoq davrlardan beri tadqiq qilib kelinmoqda va bu anʼana hozirgi kunda ham davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. 16-tom. – Toshkent: Fan, 2000. – B.17
2. Faxri Kamol. Oʻzbek tili leksikasi. – Toshkent: OʻZFA nashriyoti, 1953. – B.29-30
3. Mirtojiyev M. Soʻzlarning shakliy munosabatiga koʻra tiplari // Oʻzbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B.255
4. Oruzbayeva B.O. Slovoobrazovaniye v kirgizskom yazike. – Frunze: 1955. S-262
5. Sevortyan E.V. Affiksi glagolobrozovaniya azerbaydjonskom yazike. – Moskva: 1962. B-365
6. Smirnitkiy A.I. Leksikologiya angliyskogo yazika. – Moskva: 1956. S-160-161 ., Reformatskiy A.A. Vvedeniye yazikoznaniye. – Moskva: 1967. S-88

“QISASI RABGʻUZIY” VA “BOBURNOMA”DAGI DINIY TERMINLAR

**Rajabova M.,
TDOʻTAU magistranti**

Annotatsiya. Ushbu ishimizda “Qisasi Rabgʻuziy” va “Boburnoma” asaridagi ayrim diniy terminlarning izohini keltirib oʻtdik. Yuqoridagi ikki asarning biri paygʻambarlar tarixiga bagʻishlangan qissa varivoyatlarga bagʻishlangan boʻlsa yana biri tarixiy memuar asar hisoblanadi. Ikki xil yoʻnalishda yozilgan ushbu asarlardagi diniy terminlar qiyosiy tahlil qilinadi va izohli lugʻat asosida maʼnolari ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: “*Qisasi Rabgʻuziy*”, “*Boburnoma*”, *diniy tushunchalar, Alloh, namoz, bomdod, peshin, ibodat.*

Alloh . – ilohiy kuch, xudo Islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy ilohiy kuch; xudoning nomi (Keyingi yillarda, mahalliy talaffuzga moyil holda “olloh” tarzida ham qoʻllana boshlagan va qoʻllanyapti).

¹ Faxri Kamol. Oʻzbek tili leksikasi. – Toshkent: OʻZFA nashriyoti, 1953. – B.29-30

² Mirtojiyev M. Soʻzlarning shakliy munosabatiga koʻra tiplari // Oʻzbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B.255

Mamarajabova I. “Muhokamat ul-lug‘atayn” – chog‘ishtirma tilshunoslik asosi sifatida	202
Quraqova Sh. Piktografik yozuv tarixi va zamonaviy dunyoda piktogrammalar	205
Odilova D. “Qutadg‘u bilig” asaridagi zoonimlar tasnifi va ularning semantik-funksional xususiyatlari	209
Nuriddinova V. “Majolis un-nafois” asaridagi diniy antroponimlarning tematik-semantik tavsifi	212
Ibodullayeva S. “Kecha va kunduz” romanining badiiy xususiyatlari	217
Rasulova G. “Boburnoma”da berilgan fitonimlar tahlili	221
Kozimjonova G. “Devonu lug‘otit-turk” asarida shaxs xarakteristikasiga oid sifatlarning ifodalanishi	223
Ismatova V. “Devoni lug‘otit-turk” dagi ayrim ko‘p ma‘noli otlar haqida	226
Lafasova M. Omonimiyaga doir tadqiqotlar	228
Rajabova M. “Qisasi Rabg‘uziy” va “Boburnoma”dagi diniy terminlar	230
Bakirov Q., Abdullayeva M. Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida graduonimiya va uning bugungi kun nuqtayi nazaridan tilimizda ifoda etilishi	232
Mohammad Yasin Yoldash. “Kecha va kunduz” romanidagi chorvachilik va ekinchlikka tegishli so‘zlarning izohi va tahlili	235
O‘ZBEK LUG‘ATCHILIGINING NAZARIY ASOSLARI	
Эназаров Т., Эсмаму Н. Электрон луғатда диалектал сўзларнинг берилиши	241
Ибрагимов Ю. Ўзбек халқ шевалари лексикасининг тадрижий тараққиёти асослари	244
Xudoyberdiyev J. Xaritonov alifbosi haqida	248
Norova G. O‘zbek lug‘atchiligining nazariy asoslari	253
Bozorova S., Axmadaliyeva G. “Ot” komponentli o‘zbek va turk maqollarining qiyosiy tahlili	256
Назаров Б. Биология терминлари тараққиёти. Айрим терминларнинг лингвистик таҳлили	259
Mingboyev V. Said Ahmad asarlarida fonetik vositalarning qo‘llanilishi	266
Tolipova D. Термин “лакуна” в работах современных лингвистов	269
Kasimova Z. Бадий матн таржимасида реалияларнинг ифодаланиши	274
Latipova G. O‘zbek lug‘atshunosligining xronologiyasi va toksonomiyasi	277
Israilova S. “Ko‘k” komponentli frazemalar semantikasi	281
Abdurahmanova S. O‘zbek shevalarining elektron platformasini yaratish	284
Raximova K. Noverbal vositalarning etnik xususiyatlari	287
Xo‘jamova M. “Alpomish” dostonida lakunar birliklar tahlili	290
Alimova Sh. Xorazm qipchoq shevalarida maishiy leksik birliklar	295
Ibrohimova D. Ibn Sino asarlaridagi ba’zi tibbiy terminlar izohi	297
Hasanov M. Hozirgi kunda ommalashayotgan sport terminlari	299
Hayitboyeva D. Gurlan tumani Do‘sinbiy qishlog‘i shevasi leksikasidan materiallar	302

TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI

Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari

**To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga
mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.**

Adadi 150 nusxa. Hajmi 24,7 b/t. Bichimi 60x84 ¹/₁₆
«Times New Roman» garniturasida. ofset usulida bosildi.
OOO «BOOKMANY PRINT» bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22 mavze, 17-b.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

 t.me/ Bookmanyprint  +998 99 180 97 10